

---

## “YASHIL MAKON” UMUMIMILLIY LOYIHASI DOIRASIDA AMALIY ISHLAR QILINMOQDA



### **“Yashil makon” umumimilliy loyihasi doirasida amaliy ishlar qilinmoqda**

Ayni kunda davlatimiz rahbari tomonidan “yashil makon” umumimilliy loyihasini amalga oshirishga doir berilgan topshiriqlari ijrosi bo'yicha hududlarda amaliy va tizimli ishlar olib borilmoqda. So'x tumanida ham barcha soha vakillari ushbu loyiha doirasidagi ishlarga o'z hissasini qo'shishga astoydil harakat qilayotir.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, ona tabiatimiz, hovlimiz, mahallamiz, shahar va qishloqlarimizdagi gullar, daraxtlar, yashil maysalar bizdan har kuni, har daqiqada g'amxo'rlikni talab etadi. Tumanimizning Javpaya massivida ayni kunda yashil hududlar tashkil etishga doir amaliy ishlar qilinmoqda.

Massivda bo'lgan tuman favqulodda vaziyatlar bo'limi vakillari bevosita tuman hokimi ishtirokida mevali va manzarali daraxtlar ko'chatlari o'tqazdilar. Mazkur tizim xodimlari tashabbusi bilan Javpaya mavzesida yangi bog' yaratildi

Kunning yomg'irli bo'lishiga qaramay, favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tushlik vaqtigacha 800 to'p, kunning ikkinchi yarmida esa 500 to'pdan ortiq mevali va manzarali daraxtlar ko'chatlari o'tqazishdi. Kelajakni ko'zlab amalga oshirilayotgan bunday xayrli ishlar ona-tabiat va atrof-muhitni gullab-yashnashiga xizmat qilishi tabiiy hol.





**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-20 16:40:42

